

BAXSHICHILIK SAN'ATIDA USTOZ-SHOGIRDLIK AN'ANALARINING RIVOJLANISHI

Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

dilnozaxushbaxtova@dtpi.uz

UDK: 821.512.133

Annatatsiya: Maqolamizning ma’zmuni baxchilikning o‘ziga xosligi, rivoji haqida. Bu maqola orqali xalq og‘zaki ijodining yirik janri bo‘lgan dostonlarimizning hozirgi kungacha sayqallanib yetib kelishida Sherobod dostonchilik maktabining benazir xizmatini ommaga yetkazish va shu bilan birgalikda bu maktabdan yetishib chiqqan baxshilarimizning mashaqqati benihoya ekanligini ko‘rsatishdir.

Tayanch so‘zlar: do‘mbira, chechanlik, doston, baxshixhilik, Sherobod dostonchilik maktabi, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, chechanlik.

Baxshichilik san’atida ustoz-shogirdlik an’analari, ularning doston ijro etish usul va yo‘llaridagi o‘zgachaliklar, farqli tomonlar nazariy jihatdan “dostonchilik maktabi” atamasini yuzaga keltirdi. Garchi baxshilar repertuar birligi, ijrodagi umumiy o‘xhash tomونلار, epik mahorat masalalari bilan birbirlariga o‘xhash bo‘lsa-da, dostonchilik maktabi doirasida xususiyjihatlari bilan farqlanib ham turadilar. Bu kabi xususiyatlarni folklorshunos T. Mirzayev quydagicha izohlaydi: “...umumlashgan puxta epik an’ana doirasida ma’lum baxshi yoki baxshilar guruhiiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo‘llar, uslublar o‘zgachaligi, ustoz-shogird munosabatlari”dagi farqli tomonlardan iborat.Dostonchilik maktablariga xos mana shunday farqlar respublikamizda ko‘plab dostonchilik maktablarini yuzaga keltirdi va bir qator badihago‘y baxshi-shoirlarning tarbiyalanishi hamda jonli an’analarni davom etishiga sabab bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, dostonchilik maktablarining yuzaga kelishi, taraqqiyoti va ijro usullari baxshilar san’atining ijtimoiymadaniy jarayonlarda ommalashuvi bilan bog‘liq holatlardan hisoblansada, ikkinchi tomondan badihago‘y baxshilarining o‘z uslub va mahoratlarini takomillashtirib, shogird baxshilarni tarbiyalab yetishtirganliklari sabab bo‘lgan.

Folklorshunos olimlarning XX asr davomida olib borgan ilmiy kuzatishlari respublikamizda ko‘plab dostonchilik maktablari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, surxondaryo va Qashqadaryo dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir. Ayni paytda bir vohaga xos dostonchilik maktablari ham bir-birlari bilan o‘xhash va farqli tomonlarga ega. Buni Surxondaryo dostonchilik maktablari misolida tahlilga tortsak. Ma’lumki, Surxondaryoda ham baxshichilik (dostonchilik) san’ati ancha kuchli va qadimiy an’analarni saqlagan holda yetib kelgan hamda baxshilar auditoriyasini kengaytirgan. Ustoz baxshilarning soz va so‘zdagi mahorati, epik an’analarga qat‘iy rioya qilishlari, birinchidan, shogirdlar tarbiyalab, doston ijro etishni davom ettirgan bo‘lsa, ikkinchidan, o‘sha ustozning yashash hududi geografik jihatdan baxshichilikning markazlashuviga asos bo‘lgan (Ba’zan esa baxshi-shoirlarning tarbiyalanishi geografik joy bilan bog‘lanmaydi).

Sherobod, Boysun, Beshqo‘ton dostonchilik maktablarining shu hududlar bilan bog‘lanishi fikrimiz isbotidir. Folklorshunos olimlar A.Qahhorov, A. Ergashevlar o‘zlarining uzoq yillik kuzatuvlari natijasida Surxondaryoda dostonchilik maktabining asoschisi sifatida Bobo shoирга nisbat beradilar. Bobo shoир Sherobod dostonchilik maktabining asoschisi Shernazar Berdinazar o‘g‘lini tarbiyalab, baxshichilik san’atini o‘rgatganligi va baxshining ko‘plab shogirdlarni yetishtirganligi poetik maktabning

asoschisi sifatida uning nomi bilan bog‘lanishiga sabab bo‘lgan. M. Afzalov “O‘zbek xalq shoirlari” maqolasida Sherna baxshining ustoz-shogirdlik munosabatiga alohida e’tibor qaratadi: ”Sherna o‘z davrining eng chechan, so‘zga boy san’atkor shoirlaridan bo‘lib, shogird yetishtirishda ham Shernaga tenglashadigan ustoz bo‘lmagan. Shernazar shoir Surxondaryo va Qashqadaryo hatto Turkmanistonning ayrim shahar va qishloqlariga borib doston aytib, tinglovchilarni hayratga qoldirgan. Xalq orasida o‘z dostonlari bilan ma’lum va mashhur bo‘lgan Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Ahmad yuzboshi, Saodat yuzboshi, Normurod Shernazar o‘g‘li, Jo‘ra Eshmurod o‘g‘li va boshqa iste’dodli xalq shoirlarini tarbiyalab yetishtirgan Shernazar Berdinazar o‘g‘lidir”. Ushbu dostonchilik maktabining so‘ngi vakili Umir shoir Safarov ham bevosita Shernazar Berdinazar o‘g‘lining shogirdi hisoblanadi. Beshqo‘ton dostonchilik maktabi haqida ham shunday fikr bildirish mumkin. Maktabning asoschisi sifatida Alim yuzboshiga nibat beriladi. Uning Normurod Poyon o‘g‘li, Ahmad baxshi, Xoliyor Abdukarim o‘g‘li, Boymurod Boymat, Xoliyor Alim va boshqa ko‘plab talantlarni yetishtirganligi ushbu hududda doston ijro etish an’analarining jonli jarayonda davom ettirilganligi kuzatilgan.

Vohadagi uchinchi poetik maktabning asoschisi Abdurasul yuzboshi esa Mirza yuzboshi, Eshmurod Sherdan o‘g‘li, Mirzaqul yuzboshi va boshqa shogirdlarga doston ijro etish usul va yo‘llarini o‘rgatib shuhrat qozongan. Dostonchilik maktablari faqatgina o‘z hududlari doirasida doston ijro etmasdan, balki o‘zaro aloqada ham bo‘lganlar.

Dostonlarni tinglash, ularga tanqidiy baho berish, o‘zaro tortishuvlar baxshi-shoirlarni doston ijro etish malakalarini boyitib borgan. Har bir dostonchilik maktablari xos ijro usullari, doston namunalarini mavjud bo‘lsa-da, ammo keyingi davrda ijtimoiy-madaniy hayotimizda yuzaga kelgan o‘zgarishlar dostonchilikka xos an’analarni buzilishiga olib keldi. Hattoki, Kofrun va Beshqo‘ton dostonchilik maktablari tugab, uning ijro xususiyatlari umumo‘zbek dostonchilik maktablari ijrosiga moslashgan. Sherobod dostonchilik maktabi baxshi-shoirlari ijro repertuari haqida ham shunday xulosaga kelish mumkin. Jonli jarayondagi mavjud baxshi-shoirlar repertuari va ijro xususiyatlari borasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, Surxondaryo vohasida baxshichilik san’ati an’anaviy ijro xususiyatlarini saqlab, jonli jarayonda yashab kelgan bo‘lsa-da, globallashuv jarayonlari, axborot almashuvining tezlashish holatlari an’anaviy jonli jarayonlarni sustlashtirdi. Kofrun, Beshqo‘ton dostonchilik maktablari ijro xususiyatlariga xos usullar so‘nib bo‘ldi. Hattoki, Sherobod dostonchilik maktabi baxshilar nisbatan jonli jarayonlarni saqlab turgan bo‘lsa-da, doston ijro etish usul va yo‘llarini og‘zaki o‘zlashtirgan Qora va Chori Umirovlar, Shoberdi Boltayev kabi baxshishoirlar ijrosida ham quramalik, bir dostoniga xos xususiyatlarni ikkinchisi tarkibiga kiritish, individual ijodkorlik usullari kuchayib borayotganligidan dalolat bermoqda. Baxshilar o‘zlarini yangi davr ijodkori sifatida baholamoqdalarki, bu narsa folklorga xos individual va jamoa ijod mutanosibligining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Ikkinchidan, bugungi kunda baxshilar ijrosida doston ijro etishga nisbatan terma ijodkorligi kuchayib bormoqda. Baxshilarning erkin ijodkorlik tuyg‘ulari an’anada mavjud bo‘lmagan “yasama” dostonlarni to‘qishga imkon bermoqda. Shodmon, Rasul, Ravshan va boshqa baxshilar repertuari bunga misol bo‘la oladi. Uchinchidan, baxshichilik san’ati bugungi kunda ham Surxon vohasida yangicha ijro usullari bilan davom etib bormoqda. Chunki bugungi adabiy-madaniy o‘zgarishlar baxshi dunyoqarashi va uning ijro jarayoniga ta’sir etib, zamonaviy talqinlarga ehtiyoj sezdirmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. --T.: "Fan". 2008.
2. Afzalov M. O‘zbek xalq baxshilar. -T.: "Sharq yulduzi" 1946.N_0 10- 11

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUL,2024

3. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi. (2024). BAXSHINING BADIHAGO`YLIK MAHORATI. UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH JURNALI, 2(3), 44–53. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10795841>
4. Xushbaxtova , D. J. qizi. (2022). SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(4), 48–52. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1367>
5. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, & Shuhratova Dilfuza. (2023). NUTQ MADANIYATI. *Universal Science Research jurnali* , 1 (3), 164–167. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/347>
6. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi. (2022). SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(4), 48–52. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6468628>
7. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi. (2024). BAXSHI EPIK REPERTUARIDA "GO`RO`G`LI" TURKUMI DOSTONLARINING O`RNI. *Universal Science Research jurnali* , 2 (3), 54–63. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/4694>
8. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi. (2024). BAXSHINING BADIHAGO`YLIK MAHORATI. *Universal Science Research jurnali* , 2 (3), 44–53. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/4693>
9. Dusmuratov Qahramon Mamadievich. (2024). "MUNSHAOT" - A MASTERPIECE OF UZBEK EPISTOLARY LITERATURE. *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*, 3(6), 311–315. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/4969>
10. Dusmuratov Qahramon Mamadievich. (2024). "MUNSHAOT" - A MASTERPIECE OF UZBEK EPISTOLARY LITERATURE. *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences*, 3(6), 311–315. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/view/4969>
11. Qahromon D. O `zbek epistolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 253–257.
12. Rayimov Q. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI REKLAMA MATNLARINING LINGVOPSIXOLOGIK EKSPERTIZASI //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 22-33.
13. Rayimov Q. REKLAMA MATNLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 21.
14. Rayimov Q. REKLAMA MATNLARI LINGVISTIK EKSPERTIZASI BOSQICHLARI VA UNI TASHKIL ETISH ALGORITMI //ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO`LLANILISHI. – 2023. – Т. 3. – №. 31. – С. 17-25.